



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- yil yanvar



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar)

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – 60,3%**


**Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
724,4
ming so'm**

**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi – 68,6%**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-fevral holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar)



Soni, birlikda



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- fevral holatiga ko'ra)

65,0%


2024



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020


59,0%



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar)



2024


74,9%

Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi


2020

66,9%

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar)



¹⁾ shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari yillik yangilangan ma'lumotlar asosida keltirilgan


Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar)

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Buxoro viloyati¹⁾	1 468,4	100,0	108,7
tumanlar:			
Olot	57,3	3,9	109,5
Buxoro	79,2	5,4	110,0
Vobkent	70,8	4,8	109,8
G'ijduvon	187,8	12,8	110,5
Kogon	46,3	3,2	101,0
Qorako'l	63,3	4,3	110,1
Qorovulbozor	28,3	1,9	114,7
Peshku	73,6	5,0	110,7
Romitan	79,3	5,4	109,7
Jondor	81,1	5,5	109,9
Shofirkon	66,2	4,5	109,5
shaharlar:			
Buxoro sh.	572,7	39,0	107,3
Kogon sh.	62,5	4,3	110,1


¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **60,3** foizni, shu jumladan, **18,6** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar)



Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	1 468,4	100,0	108,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	68,7	4,7	111,5
Moliyaviy xizmatlar	358,5	24,4	106,7
Transport xizmatlari	292,5	19,9	108,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	263,1	17,9	112,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	56,3	3,8	109,1
Savdo xizmatlari	413,8	28,2	113,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	30,5	2,1	107,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	55,8	3,8	89,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	27,4	1,9	109,6
Ijara xizmatlari	33,7	2,3	107,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	33,7	2,3	107,0
Shaxsiy xizmatlar	40,9	2,8	113,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,6	0,7	100,5
Boshqa xizmatlar	46,0	3,1	121,4


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


2024- yilning yanvar chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **72,9** foizni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi (kamayishi)

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **89,9** foiz.


Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **69,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **104,3** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar)




■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar)



— Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2024- yil yanvar)




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar** oyida ularning ulushi **92,0** foizni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd.so'mda O'sish


Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar** oyidagi ulushi **60,6** foizni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)

2024-yanvar yilning oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismini egallaydi. Ularning ulushi **42,7** foizni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **90,5** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi


2024- yilning

yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **83,5 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi (kamayishi)

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar, mlrd. so'mda)




2020- yilning yanvariga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **15,6** mlrd. so'mga oshib, **33,7** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **54,3** foizni tashkil etdi.




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar)




Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **32,0** foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar)




1) shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Boshqa shaxsiy xizmatlar (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida boshqa shaxsiy xizmatlar (2024- yil yanvar, mlrd. so'mda)



2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida boshqa shaxsiy xizmatlar hajmi **26,0** mlrd. so'mga oshib, **40,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **18,1** foizni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

"Ta'lim" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Shaxsiy xizmatlar hajmi bir qancha qismlarga bo'linadi: to'qimachilik va mo'ynali mahsulotlarni kir yuvish va kimyoviy tozalash xizmatlari, sartaroshxona va go'zallik salonlari xizmatlari, dafn marosimlarini tashkil qilish xizmatlari, jismoniy komfortni ta'minlash bo'yicha xizmatlar va boshqa guruhlariga kiritilmagan shaxsiy xizmatlarni tashkil etadi.